

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQLARI VA IJTIMOY SIYOSAT

Jalolov Akbarali Farhod o'g'li
Jamoat xavfsizligi universiteti talabasi

Annotasiya: *Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlariga berilayotgan e'tibor va ijtimoiy hayot qay darajada olib borilyapti.*

Kalit so'zlar: *BMT, inson huquqlari, Ombudsman, deklartsiya, XMT.*

Inson huquqini ta'minlash va uni himoya qilish kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida eng asosiy va bosh masalalardan biri bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "hozirgi vaqtda dunyoda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish, demokratiya va qonun ustuvorligini ta'minlash markaziy o'rinni egallamoqda". Mamlakatimizda bugungi kunda yangi islohotar bosqichida insonni, inson huquqini himoya qilish, uning huquqiy kafolotlarini mustahkamlash eng ustuvor, birinchi darajali davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalaga aylandi.

Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi deb o'rnatildi".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqini tartibga soluvchi normalariga inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy tamoyillari to'la singdirildi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil, 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) rezalutsiyasi orqali qabul qilingan. Mazkur inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilar ekan, bundan muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkilot doimo ushbu Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim yo'li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyotparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta'minlanishiga, tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlar o'rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishi zarur deb keltirib o'tilgan bosh assambleyada. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida inson huquqiga sodiqlik, Respublika fuqarolarining munosib turmush kechirishi, fuqarolar tinchligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, "uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" (13-modda) deb belgilab qo'yilgan. Shuningdek Konstitutsiyaning o'zida "inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolotlari" uchun maxsus bob mavjudligini o'zi kafolotga e'tiborning kuchli ekanligini ko'rsatadi. Barcha mamlakatlar Konstitutsiyasida ham kafolotlar uchun maxsus bob ajratilmagan.

Bugungi kunda O'zbekiston XMTning majburiy mehnatga qarshi konvensiyasiga qo'shildi, mamlakatimiz ishtirokchisi bo'lgan inson huquqiga bag'ishlangan 70 dan ortiq asosiy xalqaro hujjatlar, BMTning ushbu sohadagi 10 ta asosiy xalqaro shartnomalarining qoidalari inson huquqi va erkinliklarini samarali himoya qilishni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va milliy qonunchilik normalarida o'z aksini topdi.

Huquq va erkinliklarni ta'minlash masalasi jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor vazifa deb qaralishi, inson huquqlari va erkinliklarini so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilish zarurligi Prezidentning **"Hamмамiz yaxshi tushunamizki, qonunlarni qabul qilish- bu ishning bir qismi, xolos"**- degan so'zlarida ko'rinadi. Prezident SH.M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi"gi PF-60-sonli Farmoniga binoan mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlashga qaratilgan islohotlar ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanib, unda inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish kabi dolzarb vazifalar belgilab qo'yildi.

"Ombudsman" tushunchasi "umbud" so'zidan kelib chiqib, u o'rta asr shved tilida kuch yoki mo'tabar shaxs degan ma'noni anglatadi. Shvedcha "ombudsman" so'zi vakil, delegat, agent, muxtor, ishonchli shaxs ma'nosini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimida o'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili muhim o'rinni egallaydi. Parlament huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) instituti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida tashkil etildi va 1995-yil 6-mayda Oliy Majlis qaroriga binoan uning huzurida Vakilning inson huquqlari borasidagi vazifalarni namunali amalga oshirishiga ko'maklashish uchun fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish komissiyasi tashkil etildi. Vakil va kommissiya faoliyati Oliy Majlisning 1995-yil 29-avgust qarori bilan tasdiqlangan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi Nizom bilan tartibga solindi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 24-aprelda "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqi bo'yicha vakili inson huquqi bo'yicha boshqa milliy tizimlar qatori inson huquqini himoya qilish va ularga rioya qilish zaruratini yalpi tan oldirish va tushunishga keng ko'lamda ko'maklashadi, jamiyatga O'zbekiston qonunlari va xalqaro huquq normalarida mustahkamlab qo'yilgan inson huquqi, kafolatlari va burchlari haqida atroflicha axborot beradi. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-sonli farmoniga binoan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi ishlab**

chiqildi. Bu farmon O'zbekistonda inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Inson huquqi darslik Toshkent "Yuridik adabiyatlar publish" 2023
3. O.T. Husanov Konstitutsiyaviy huquq darslik Toshkent-2023
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. O'zbekiston nashriyoti 2021
5. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyotimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston" 2019, 1-tom.

